



## JADIDCHILIK HARAKATINING MAQSADI VA IJTIMOY-SIYOSIY MOHIYATI

**Yusupova Laylo**

*Guliston davlat universiteti*

*Psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti  
4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada jadidchilik harakati, uning ijtimoy-siyosiy mohiyati, Turkiston jadidlari, jadidchilik mafkurasi, milliy qadriyatlarga munosabat, umuminsoniy taraqqiyot yutuqlarini tushuntirish, jadidlarning xalqaro aloqalari keng bo'lganligi, ular Rossiya, Turkiya, Misr va boshqa mamlakatlardagi jadidchilik oqimlari dasturlaridan xabardor bo'lganliklari to'g'risida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar.** Jadidchilik, Turkiston jadidchiligi, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Asadullaxo'ja o'g'li, Abdulla Avloniy, Toshpo'lat Norbo'tayev, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Ubaydulla Xo'jayev, Fayzulla Xo'jayev, Ashurali Zohiriy, Po'lat Soliyev, Obidjon Mahmudov, Nosirxonto'ra Kamolxonto'rayev, harakatning ijtimoy-siyosiy mohiyati, ma'rifatparvarlik.

Jadidchilikning asosida “jadid” so'zi yotadi. “Jadid”ning ma'nosi “yangi” demakdir. U shunchaki “yangi” yo bo'lmasa, “yangilik tarafdori” degani emas. Balki “yangi tafakkur”, “yangi inson”, “yangi avlod” singari keng ma'nolarni oz'ida mujassam etgan. Jadidchilik ma'rifatparvarlikdan qudratli siyosiy harakatga qadar bo'lgan murakkab rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Turkistondagi mustamlaka, uning turli tanazzulga yuz tutganligi, xalqning og'ir iqtisodiy ahvoli, jahonning taraqqiy etgan mamlakatlaridan iqtisodiy jihatdan ortda qolishi, madaniy qoloqlik, ijtimoy ongdagi turg'unlik – jadidlarni jahon taqqiyoti tajribasidan foydalanib tezlikda bu holatdan chiqish yo'llarini izlab topishga undadi. Yetilib qolgan muammolarni hal etishdagi dastlabki yo'l sifatida ma'rifatparvarlik harakati yuzaga keldi.

Jadidlar ham Sharq, ham G'arb madaniyati yutuqlarini egallashga intildilar, o'qidilar va o'zgalarni ham shunga dav'at etdilar. Ular xorijga chiqib, turli mamlakatlardagi madaniyat va ta'lim taraqqiyoti darajasini ko'ra oldilar, ularni solishtirdilar va bu zehni yoshlarda jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga keltirish istagi paydo bo'ldi. Natijada, jadidlarning diqqat markaziga birinchi bosqichda ta'limni isloh etish vazifasi qo'yildi. Ular bu nday islohotlarni o'tkazish zaruratini nafaqat, nazariy jihatdan isbotlab berdilar, balki yangi usuldagi maktablar, kutubxonalar, o'quv zallari ochib, darsliklar yozib, o'z g'oyalarini amalga oshirishga kata kuch sarfladilar.

Dastlabki jadid maktablari 1898-yilda Qo'qonda Salohiddin domla, 1899 - yilda Toshkentda Mannon Qori va shu yili Andijonda Shamsiddin domlalar tomonidan ochilgan. XX asr boshlarida bu harakat tezlik bilan rivojlanib ketdi.



Milliy ziyolilarning o'zagini tashkil etuvchi jadidchilikning ko'zga ko'ringan vakillari – Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Asadullaxo'ja o'g'li, Abdulla Avloniy, Toshpo'lat Norbo'tayev, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Ubaydulla Xo'jayev, Ashurali Zohiriy, Po'lat Soliyev, Obidjon Mahmudov, Nosirxonto'ra Kamolxonto'rayev kabilar harakatning yetakchilari edilar [2 B 36].

Turkiston jadidlarini birlashtirishda “Jadidlarning rahbari” deb tan olingan Mahmudxo'ja Behbudiyning xizmatlari beqiyos bo'ldi.

Jadidlar o'lkani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida ham o'ziga xos qarashlarga ega edi. Taraqqiyparvarlar o'z faoliyatlari davomida o'lka xalqlarining ijtimoiy hayoti, turmush tarzi, kasb-kori, shart-sharoitlaridan xabardor bo'lishgan. Xalqning ahvoli yildan yilga og'irlashib borayotganini angladi. Ularning fikricha, mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlamay turib, siyosiy va huquqiy erkinlikka erishish mumkin emasdi. Buning uchun birinchi navbatda yerni, yerosti va yerusti boyliklarini, suvni Turkiston xalqlarining umumiy boyligi deb e'lon qilish, barcha sohalarni rivojlantirishga qodir mahalliy kadrlarni tayyorlash, zavod va fabrikalar qurib, mahsulotlarni o'lkaning o'zida ishlab chiqarishni zarur deb bilishdi. Jadidlar ko'plab yoshlarni rivojlangan xorijiy davlatlarga, jumladan, Germaniyaga o'qishga yuborish, u yerda ular tahsil olib kelib, yurt va millat uchun xizmat qilishi g'oyalarini ilgari surdi. Ularning sa'y-harakatlari bilan mahalliy aholi tomonidan yoshlarning xorijda o'qib kelishiga ketadigan xarajatlari uchun mablag'lar yig'ildi. O'lkada va xorijda savdo-sotiq, sanoat va qishloq xo'jaligi rivojining qiyosiy tahliliga bag'ishlangan ko'plab maqolalar e'lon qilindi. Turkiston taraqqiyparvarlaridan biri, Toshkentning “Qor yog'di” mahallasidan bo'lgan Asadullaxo'ja o'g'li Ubaydullaxo'ja Rossiyada huquqshunoslik sohasi bo'yicha ta'lim olib, birinchi oliy ma'lumotli o'zbek advokati bo'ldi. U buyuk rus yozuvchisi Lev Tolstoy bilan yozishmalar olib borgan.

Jadid tashkilotlarining maqsadlari kengayib siyosiy tus olganligining sababi ikkita edi; birinchidan, 1914-1915-yillarda jadidchilik boshidan kechirgan inqiroz – gazetalar va yangi usul maktablarining berkitilish hollari, hokimiyat jadidlarining bilimsizlik va g'aflatga qarshi kurash faoliyatini kengaytirishga yo'l bermasligi, shuningdek, busiz jamiyatda hech qanday o'zgarishlarga erishib bo'lmasligini ko'rsatdi. Ikkinchidan, jadidchilik harakatiga xorijda o'qib, chet eldagi milliy taraqqiyparvar harakatlar tajribasini o'rganib qaytgan, yosh kuch oqim kelib qo'shildi. Ular madaniylashtirish doirasida cheklanib qolmay, aniq siyosiy vazifalar qo'yishni talab qildilar. Soliqlarni kamaytirish, amaldorlar zulmini cheklash, dehqonlar hayotini yengillashtirish – shu talablar jumlasidan edi. Turkiston taraqqiyparvarlari XX asrning boshlaridagi dunyoda ro'y bergan siyosiy





jarayonlarni diqqat bilan kuzatib bordilar. Bu davrda xorijdagi siyosiy partiyalarning dasturlarini tahlil qildilar. Shu vaziyatda taraqqiyparvarlar o'zbek xalqining tinchliksevarligi, bosiqligidan kelib chiqib, barcha muammolarni tinch yo'l bilan hal etishga intildilar, chunki ular qonli to'qnashuv va urushlarga qarshi edilar. 1917-yildagi Rossiya fevral voqealari arafasida Turkiston jadidchiligi kuchli siyosiy harakatga aylandi. Birinchi jahon urushidan keyin jadidlar parlamentar monarxiya uchun kurashgan bo'lsalar, fevral voqealaridan keyin ancha keng qamrovli, bir qator siyosiy talablarni ilgari surishdi. Jumladan, mahalliy aholi huquqlarini kengaytirish, o'lkani boshqarish yuzasidan islohotlar o'tkazish, Davlat Dumasidan o'lka aho lisi sonidan kelib chiqib o'rin ajratish, milliy matbuot erkinligini ta'minlash kabilar. Ayni vaqtda, milliy-siyosiy partiyalar va tashkilotlar, masalan, "Sho'royi Islomiya", "Ittifoq" kabi bir qator tashkilotlar tuzildi. Bu paytda jadidlar tub yerli aholi ijtimoiy tarkibining barcha qatlam vakillarini o'z ortidan ergashtira oldi. Turkistonda jadidlar faoliyati mahalliy aholini ma'rifatli qilishga, ularda milliy o'zlikni anglashning kuchayishiga, ozodlik uchun kurashlarning ko'tarilishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Jadidchilik harakati o'lkada podsho hukumatining mustamlakachilik siyosatiga qarshi turuvchi asosiy ma'naviy kuch sifatida namoyon bo'ldi. 1917-yil mart oyi boshlarida jadidlar tomonidan Toshkentda barcha erkparvar tashkilotlarning umumiy dasturiga ega bo'lgan yagona tashkilot — "Musulmon markaziy sho'rosi" tuzildi. Uning ta'sis syezdida 350 delegat qatnashgan.

Ular orasida ozarbayjonlar, tatarlar, turkmanlar, boshqirdlar kabi boshqa musulmon xalqlarining vakillari ham bo'lgan. Syezdda barcha delegatlar bo'lajak davlat Turkiston deb atalishi, uning tarkibiga Buxoro, Xiva va Turkiston general-gubernatorligi kirishi kerak degan fikrni ma'qullashdi. Biroq Turkistonda 1917-yildagi oktyabr voqealari va bolsheviklarning hokimiyatni egallashi jadidlarning o'z maqsadlarini oxirigacha amalga oshirishlariga imkon bermadi. Shunga qaramay, ular markazi Qo'qonda bo'lgan, Turkiston muxtoriyati deb atalgan mustaqil muxtor respublika e'lon qildi. 72 kun yashagan bu muxtor respublika sovet hokimiyati tomonidan tor-mor etildi. Natijada jadidlar ta'qibga uchradi va oxir-oqibat, 1937–1938-yillarda qatag'on qurboni bo'lishdi.

Jadidlar nafaqat Vatanga va milliy qadriyatlarga munosabati bilan, ayni paytda, umuminsoniy taraqqiyot yutuqlarini tushunishda ham tarixiy namuna bo'lishlari mumkin. Ular hech qachon milliy doirada cheklanib qolmaganlar va ularning G'arb sivilizatsiyasi tomon intilishlarini tushunish mumkin. O'sha paytda G'arb, texnologiya va ishlab chiqarish darajasi jihatidan Sharqqa nisbatan ancha ilgarilab ketgan edi. Jadidlar o'zlarining kelajakdagi davlat tuzumini barcha millatlarning



birligi asosida tasavvur etardilar. Bu haqda Behbudiy shunday degandi: “Biz joriy etgan qonunlar yahudiylarning ham, nasroniylarning ham, musulmonlarning ham va umuman, barchaning manfaatlarini himoya qilishi kerak. Agar biz, Turkiston musulmonlari, birgalikda islohotlar o’tkazishni istasak, bizning ziyolilar, ma’rifatparvarlar, boylar, ruhoniylar va olimlar millat va Vatan farovonligiga xizmat qilishlari kerak. Agar bizni mustamlakachilik qonunlari bilan boshqarayotgan ekanlar, buning sababchisi, avvalo, o’zimizning noittifoqligimizdir” [3].

Xulosa o’rnida shuni aytish joizki rivojlangan davlar qurishdagi o’z g’oyalarini amalga oshirishda jadidlar mutassiblik, loqaydlik, qoloqlikka qarshi kurashga alohida e’tibor berganlar. Bu vazifalarni amalga oshirishda ular bilimdon yoshlarga tayanganlar. Jadidlar o’z ishlarida Yevropa davlatlari taraqqiyotga qanday yo’llar yetib kelganligini aks ettirib asoslashga tarixiy misollar keltirganlar. Ular til o’rganish va fan-texnika taraqqiyotining ahamiyatiga alohida e’tibor berib Turkistonning o’tmishdagi hamda zamonaviy holatining o’ziga xos tamoyillarini hisobga olgan holda, uning kelajagini quyidagicha rejalashtirganlar: kuchli dunyoviy hokimiyat, xususiy mulkning dahlsizligi, bank kapitalining erkinligi tamoyillariga asoslangan ozod, mustaqil davlat qurish. Jadidlar xalqning madaniyat darajasini xalqaro saviyaga ko’tarishni orzu qilganlar. Buning uchun esa yoshlarni Yevropaning eng yaxshi o’quv maskanlarida o’qitishni zarur deb hisoblaganlar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Kun.uz rasmiy kanali 30.01.2021-yil.
2. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. T.: “Universitet” 1999. - 36 b.
3. Behbudiy M. Bayoni haqiqat // Ulug’ Turkiston. - 1917. - 12-iyun
4. Bekzodovna, J. M., & Akbarovna, D. G. (2023). Innovative Methods and Tools in Higher Education. *Science and Innovation*, 2(11), 708-715.
5. Jumayeva, M. B., & Usmanovna, S. M. (2022). Practical Methods of Culture-Based Language Teaching in English Classes. *Science and innovation*, 1(Special Issue 2), 612-615.
6. Бойназаров, И. М., & Бобоназаров, А. А. (2024). Mantiqiy funksiyalarning minimallashtirishning Quine-McCluskey usuli: Quine-McCluskey Method of Minimization of Logic Functions.
7. Sharipovna, R. S. Peculiarities Of Teaching English In Secondary Schools In Uzbekistan. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, (2), 1-5.
8. Bekzodovna, J. M., & Abdullayevna, R. N. Organization Of Modern Educational Processes In The Education System.
9. Sharifovna, R. S. (2022). Class Size And The Learning-Teaching Process In Upper Classes. *Journal of new century innovations*, 14(1), 86-98.
10. Rustamova, S. S. (2023, January). The Importance Of Speaking Activities In





- Teaching English. In International Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 357-361).
11. Shokhista, R. (2023). The Significance Of Emphasizing Communicative Competence As The Foundation For Teaching Listening And Speaking Skills Rustamova Shokhista Sharifovna. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 25-28.
  12. Suleymanova, N. M. (2020). On The Nominative Nature Of The Sentence. Theoretical & Applied Science, (4), 307-309.
  13. Сулейманова, Н. М. (2017). Номинативный аспект речевого процесса. In Humanities and Social Sciences in Europe: Achievements and Perspectives (pp. 76-82).
  14. Suleymanova, N. M., & Idiyev, A. R. O. G. L. (2021). Gapping Nominativ Aspekti Va Uning Kommunikativ Jarayoni Haqida. Academic research in educational sciences, 2(12), 805-809.
  15. Сулейманова, Н. М., & Абдуллаева, Л. Т. (2017). Имманентный характер синергетических свойств единиц языковой системы. In Инновации В Современном Языковом Образовании (pp. 61-65).
  16. Ikrambayevna, S. D. (2024). Classification of Functions of Communicative Strategy and Tactics in Political Communication. Miasto Przyszłości, 50, 548-553.
  17. Sattarova, D. (2024). Siyosiy Muloqotning Pragmatik Aspektlari. Tamaddun Nuri Jurnalı, 5(56), 380-383.
  18. Axmedova, D., & Zarmaskhonov, S. (2024, February). Exploring Global Perspectives In Language Teaching And Learning. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 205-207).
  19. Sattarova, D. (2023). Kommunikativ Diskursning Tadqiqot Ob'yekti. Молодые ученые, 1(22), 41-43.
  20. Ikramboyevna, A. D., & Ikramboyevna, S. D. (2023). The Ways of Forming Secondary Nomination in Uzbek Language and Its Impact on Linguistics.